

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OILA HAMKORLIGINING PEDAGOGIK ASOSLARI

Tursinova Dinoraxon

Qo'qon universiteti Ta'lim fakulteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-24 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20425250>

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlikning pedagogik asoslari keng yoritilgan. Unda bolani har tomonlama rivojlantirish jarayonida oila va ta'lim muassasasining o'rnini, ularning o'zaro aloqasi, hamkorlikning shakli va usullari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, samarali hamkorlikni tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari bayon etilgan. Ushbu tezis maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi pedagoglar hamda ota-onalar uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, oila tarbiyasi, pedagogik hamkorlik, bola rivoji, tarbiyachi, ijtimoiy muhit, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kommunikatsiya, pedagogik madaniyat

Kirish

Maktabgacha yosh davri inson hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning shaxsiyati, xarakteri, dunyoqarashi va ijtimoiy ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Shu sababli bu davrda beriladigan ta'lim va tarbiya keyingi hayot uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Bolaning rivojlanishida ikki muhim muhit – oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti katta rol o'ynaydi. Oila bolaning ilk tarbiya maskani bo'lib, unda mehr, e'tibor, dastlabki ijtimoiy tajriba shakllanadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti esa ushbu jarayonni tizimli, maqsadli va pedagogik asosda davom ettiradi. Hozirgi zamon ta'lim tizimida oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki bola tarbiyasida bir tomonlama yondashuv yetarli natija bermaydi. Faqatgina oila va pedagoglarning birgalikdagi faoliyati orqali bolani barkamol shaxs qilib tarbiyalash mumkin.

Tarbiyalanuvchining oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'rnini shundayki: Oila – jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, bola tarbiyasida birlamchi va muhim rol o'ynaydi. Bola ilk bor oila muhitida nutq, xulq-atvor, odob-axloq, qadriyatlarini o'rganadi. Ota-onaning munosabati, oiladagi muhit bolaning psixologik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti esa bolani ijtimoiy hayotga tayyorlaydi. Bu yerda bola tengdoshlari bilan muloqot qiladi, jamoada ishlashni o'rganadi, mustaqillik, mas'uliyat kabi sifatlar shakllanadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida bolalarning intellektual salohiyati rivojlanadi. Shunday ekan, oila va ta'lim tashkiloti bir-birini to'ldiruvchi va davom ettiruvchi muhim tizimlardir.

Oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligi pedagogik jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu hamkorlik bolaning manfaatlarini ko'zlab, uni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Mazkur jarayonda ota-onalar va pedagoglar o'zaro doimiy muloqotda bo'lib, bolaning rivojlanishidagi yutuq va muammolarni birgalikda tahlil qiladilar. Natijada tarbiya jarayonida yagona yondashuv shakllanadi, bu esa bolaning psixologik barqarorligi va ijtimoiy moslashuvini ta'minlaydi. Shuningdek, hamkorlik orqali bolaga qo'yiladigan talablar va beriladigan imkoniyatlar o'zaro uyg'unlashib, uning qobiliyatlarini to'liq namoyon etishiga sharoit yaratiladi.

Hamkorlik quyidagi pedagogik tamoyillarga asoslanadi:

1. O'zaro hurmat va ishonch – pedagog va ota-onalar bir-birining fikrini hurmat qilishi kerak.
2. Hamjihatlik – barcha tarbiyaviy ishlar yagona maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

3. Faollik – ota-onalar ta’lim jarayonida faol ishtirok etishi kerak.
4. Individual yondashuv – har bir bolaning o’ziga xos jihatlari hisobga olinadi.

Bu tamoyillar asosida qurilgan hamkorlik samarali natija beradi. O’zaro hurmat va ishonch – pedagog va ota-onalar bir-birining fikrini hurmat qilishi kerak. Hamjihatlik – barcha tarbiyaviy ishlar yagona maqsadga yo’naltirilgan bo’lishi zarur. Faollik – ota-onalar ta’lim jarayonida faol ishtirok etishi kerak. Individual yondashuv – har bir bolaning o’ziga xos jihatlari hisobga olinadi. Bu tamoyillar asosida qurilgan hamkorlik samarali natijalar beradi. Mazkur tamoyillar amaliyotda qo’llanilganda, oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti o’rtasida mustahkam pedagogik aloqalar shakllanadi. Bunday hamkorlik muhitida bola o’zini erkin, ishonchli va qo’llab-quvvatlangan holda his qiladi. Natijada uning nafaqat bilim olishga bo’lgan qiziqishi ortadi, balki ijtimoiy faolligi ham kuchayadi.

Oila bilan maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorligining ajamyati shundaki: Oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorligi natijasida bolaning rivojlanishida sezilarli ijobiy o’zgarishlar yuz beradi. Birinchidan, bola o’zini ishonchli va qulay muhitda his qiladi. Ikkinchidan, uning ijtimoiy moslashuvi tezlashadi. Uchinchidan, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi. Bundan tashqari, ota-onalar ham pedagogik bilimlarga ega bo’lib boradi, bu esa oiladagi tarbiya sifatini oshiradi. Natijada, bola barkamol shaxs sifatida shakllanadi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila hamkorligi bolaning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Oila bolaga dastlabki tarbiyani bersa, ta’lim tashkiloti uni davom ettirib, bilim va ijtimoiy ko’nikmalarini shakllantiradi. Shu sababli ularning birgalikdagi faoliyati yagona maqsadga yo’naltirilgan bo’lishi zarur. Samarali hamkorlik natijasida bola o’zini ishonchli muhitda his qiladi, uning bilimga qiziqishi ortadi va ijtimoiy moslashuvi yaxshilanadi. Shu bilan birga, ota-onalarning pedagogik madaniyati ham rivojlanadi. Demak, oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti o’rtasidagi uzviy hamkorlik barkamol, mustaqil fikrlaydigan va faol shaxsni tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi.

Umuman olganda, maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila hamkorligi barkamol avlodni tarbiyalashning eng muhim shartlaridan biridir. Bu hamkorlik qanchalik puxta va tizimli yo’lga qo’yilsa, kelajak avlodning bilimli, ma’naviy yetuk va ijtimoiy faol bo’lib voyaga yetishi shunchalik ta’minlanadi. Shu sababli, ushbu yo’nalishda olib borilayotgan ishlarni yanada rivojlantirish, yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etish va amaliyotga keng tatbiq etish dolzarb vazifa bo’lib qoladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O’zbekiston Respublikasi. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida”gi Qonun. – Toshkent, 2019.
2. O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. Maktabgacha ta’lim davlat standarti. – Toshkent, 2020.
3. Pedagogika nazariyasi va tarixi / O’quv qo’llanma. – Toshkent: O’qituvchi, 2018.
4. Oila pedagogikasi asoslari / O’quv qo’llanma. – Toshkent: Fan, 2017.